

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

***70210601 – Dastgoh va kitob grafikasi magistratura
mutaxassisligining***

MALAKA TALABI

Toshkent-2024

ЎЗР ОТИВ
Buyruq № _____
’0__ yil “__”

ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024- yil “___” _____dagi _____ - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta‘lim davlat ta‘lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy meyoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar	6
3.	Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar	7
4.	Fanlar katalogining tuzilishi	7
	Bibliografik ma'lumotlar	11
	Kelishuv varag'i.....	12

1. Umumiy tavsifi

70210601 – Dastgoh va kitob grafikasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining meyoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi 70210601 – Dastgoh va kitob grafikasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari, ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.

Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash hamda kasb-hunar ta'limi muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, ilmiy institutlarda ilmiy tadqiqot ishlarni olib borish, O'zbekiston Badiiy akademiyasi huzuridagi Rassomlik mahorat ustaxonasida ijodiy faoliyat olib borish, davlat va nodavlat tashkilotlarida badiiy bezak ishlarni tayyorlash, ijodiy loyiha va badiiy ekspozitsiyalarni tashkil etish va joylashtirish, portret, manzara, natyurmort, maishiy, batal janrlarida badiiy kompozitsion asarlar yaratish, respublika va xorijiy ko'rgazma zallari va galereyalarda ijodiy ko'rgazmalarini tashkil qilish, Badiiy ijodkorlar uyushmasida erkin ijodiy faoliyat olib borish, xususiy nashriyot, dizayn studiya, poligrafiya, ishlab chiqarish birlashmalarida kompleks masalalar bilan bog'liq kasbiy sohalari majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.

- Oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;
- O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar;
- O'zbekiston Badiiy akademiyasi huzuridagi Rassomlik mahorat ustaxonasida ijodiy faoliyat;
- Davlat va nodavlat tashkilot, korxonalar va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari, qadimiy qo'lyozmalarni o'rganish muassasalari (muzeylar), nashriyot va dizayn studiyalar.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- Ilmiy-tadqiqot;
- tashkiliy-boshqaruv;
- pedagogik faoliyat;
- badiiy-ijodiy faoliyat.

1.2.4. Kasbiy vazifalari.

70210601 – *Dastgoh va kitob grafikasi* mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

Mutaxassislikka oid yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot va ijodiy loyihalarni tahlil qilish;

ilmiy ish yaratishda sohaga doir dolzarb muammolarni aniqlash va ularni ilmiy o'rganish bo'yicha zamonaviy bilimga, keng fikr yuritish doirasiga ega bo'lish;

xorijiy va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy konferensiyalarda, seminarlarda ishtirok etish;

xorijiy va respublika miqyosidagi ilmiy jurnallarga maqolalar tayyorlashi qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

nashriyot sohasida ishlab chiqarishni tashkil etish va takomillashtirish bo'yicha badiiy yechimlarni ishlab chiqish.

ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda ishtirok etish.

bosma va visual mahsulotlarini ishlab chiqarish sifatini nazorat qilish;

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

ijodiy guruh faoliyatini va badiiy ko'rgazmalarni tashkil etish;

yuritayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;

soha bo'yicha badiiy estetik didni tadbiq etish;

kasbga oid muammolarning yechimlarini amaliyotga tatbiq etish.

Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalarida ilmiy-pedagogik hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalaridagi pedagogik faoliyatda (o'rnatilgan tartibda):

Oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib, bakalavriat va magistratura o'quv rejalarida o'zlashtirilgan fanlar doirasida nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish;

o'quv fanlarini o'qitish metodikasini egallashi;

oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimining ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishi;

talaba va tinglovchilarni ijodiy fikrlashga unday olishi;

soha bo'yicha mahorat darslarini o'tkaza bilish;

ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishi;

fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanishi;

o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat bo'yicha turli usullar va vositalardan foydalangan holda o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish;

uzluksiz ta'lim tizimining DTS, Davlat talablari va boshqa o'quv-meyoriy hujjatlarni ishlab chiqish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

Loyihalar samaradorligini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

Badiiy-ijodiy faoliyat:

Kitob grafikasi, dastgohli grafika, miniatyura, kitobat, xattotlik, bosma va visual mahsulotlar dizayni kompozitsiyalarini badiiy yuqori me'yorlarida yaratish;

badiiy ko'rgazmalar konsepsiyasini ishlab chiqish.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.

ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilish va kasbiy faoliyatda undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

o'zining individual bilimlariga tayangan holda ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni tushunishi va ularni tahlil qilish;

o'z faoliyatida grafika sohasiga oid meyoriy huquqiy hujjatlardan foydalana bilish;

badiiy tahlil jarayonida fikrlash madaniyati, muayyan tafakkur uslubiga, og'zaki va yozma nutqini aniq bayon qilish;

o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilish;

ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashish;

ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi lozim.

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va taxrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lish;

magistratura mutaxassisligi bo'yicha bilimlar bazasini yaratish, jamlash va ulardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishi, tadqiqot etilishi;

magistratura mutaxassisligi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish, kasb faoliyatining ko'zlangan natijalariga erishishda jarayonlarni modellashtirish va tizimli yondashisha olishi;

kasbiy faoliyatda kompozitsiya qonuniyatlaridan foydalana olishi, grafika-miniatyura uslub va texnikalarini qo'llay olishi;

san'at tarixi, yetuk soha rassomlari, grafika uslub va texnikalari, miniatyura uslub va texnikalari, kompozitsiya qonunlari, rang garmoniyasi, grafika ashyolari va miniatyura ashyolarini bilishi va amalda qo'llay olishi;

bosma va visual mahsulotlarni axborot texnologiyalar orqali loyihalash, grafika kompozitsiya va miniatyura kompozitsiyalarini ishlab chiqish hamda nodir san'at asarlardan nusxa ko'chirishga qodir bo'lish;

sohaga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va professional faoliyatida ulardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishi;

axborot texnologiyalaridan foydalanishda mahoratga ega bo'lish;

yaratilgan asarlar sifatini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonini rejalashtirish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish) – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va ilmiy jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli ilmiy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T/r	Faning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00.		Majburiy fanlar	1620	54	
1.01.	ITM1104	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02.	MFO'M1104	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	120	4	2
1.03.	GKBY1306	Grafika kompozitsiyasida badiiy yechim	180	6	1,2,3
1.04.	KBBY1208	Kitob bezagining badiiy yechimi	240	8	2,3
1.05.	ChizRang1324	Chizmatasvir va rangtasvir	720	24	1,2,3
1.06.	PS1208	Plakat san'ati	240	8	1,2
2.00		Tanlov fanlari	360	12	1,3
		<i>Tanlov fanlari</i>	360	12	1,3
Kvalifikatsiya:		Pedagog-tadqiqotchi, grafik rassom			
		Jami	1980	66	
3.00.		Ilmiy faoliyat	1620	54	1,2,3,4
		HAMMASI	3600	120	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:


Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, ijodiy jarayon, rassomlik uslublari, kompozitsiya, nashriyot, kitob bezagi, ilmiy boshqarish, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, fan ishchi dasturlari, zamonaviy o'lchov asboblari, ilmiy-tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariy.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQLGAN:

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

Rektori  A. Mirzoraximov

2024-yil " _____ " _____
M.O. 


O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Rektori  N. Sayfullayev

2024-yil " _____ " _____
M.O. 

KELISHILDI:


O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi
Direktori  M. Boltabayev


2024-yil " _____ " _____
M.O. 


O'zbekiston Badiiy akademiyasi

Raisi  A. Nuriddinov

2024-yil " _____ " _____
M.O. 

Kamoliddin Behzod nomidagi Sharq
miniatyura san'ati muzeyi
Direktori  G. Qarshiyeva

2024-yil " _____ " _____
M.O. 

Pavel Benkov nomidagi Respublika
ixtisoslashtirilgan rassomlik maktabi
Direktori  U. Xakimov

2024-yil " _____ " _____
M.O. 